



UDK: 1.18.111.8

Laylo TURSUNOVA,

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: l.e.tursunova@gmail.com

PhD, dotsent T.Shokirov taqrizi asosida

TILAB MAHMUDOVNING FALSAFIY MEROSIDA MILLIY TAFAKKUR ELEMENTLARI (MINIATYURA SAN'ATI VA "OQAR DARYO OQAVERSIN JIMGINA" ASARI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada Tilab Mahmudovning falsafiy merosida milliy tafakkur elementlarining ifodalanishi, xususan, miniatyura san'ati va "Oqar daryo oqaversin jimgina" asari misolida tahlil etiladi. Muallifning badiiy-estetik qarashlari orqali o'zbek xalqining dunyoqarashi, milliy qadriyatlar va go'zallik mezonlari qanday talqin etilgani yoritiladi. Shuningdek, Mahmudov ijodining zamonaviy estetik tafakkur rivojiga ta'siri ham falsafiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tilab Mahmudov, milliy tafakkur, falsafiy meros, miniatyura san'ati, estetik ong, go'zallik, zamonaviy talqin.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ МИРОВОЗЗРЕНИЯ В ФИЛОСОФСКОМ НАСЛЕДИИ ТИЛАБА МАХМУДОВА (НА ПРИМЕРЕ ИСКУССТВА МИНИАТЮРЫ И ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ПУСТЬ РЕКА ТЕЧЁТ СПОКОЙНО»)

Аннотация

В данной статье рассматриваются элементы национального мышления в философском наследии Тилаба Махмудова, в частности на примере миниатюрного искусства и произведения «Пусть течёт река тихо». Анализируются художественно-эстетические взгляды автора, отражающие мировоззрение узбекского народа, его духовные ценности и эстетические идеалы. Также освещается влияние творчества Махмудова на развитие современного эстетического мышления.

Ключевые слова: Тилаб Махмудов, национальное мышление, философское наследие, искусство миниатюры, эстетическое сознание, красота, современность.

ELEMENTS OF NATIONAL THINKING IN THE PHILOSOPHICAL HERITAGE OF TILAB MAHMUDOV (BASED ON THE EXAMPLE OF MINIATURE ART AND THE WORK "LET THE RIVER FLOW QUIETLY")

Annotation

This article examines the elements of national thinking in the philosophical heritage of Tilab Mahmudov, particularly through the lens of miniature art and his work "Let the River Flow Quietly." The study analyzes Mahmudov's aesthetic views that reflect the worldview, cultural values, and ideals of beauty inherent in Uzbek philosophy. Furthermore, the paper explores the philosophical significance and contemporary relevance of Mahmudov's contribution to the development of modern aesthetic consciousness.

Keywords: Tilab Mahmudov, national thinking, philosophical heritage, miniature art, aesthetic consciousness, beauty, contemporary interpretation.

Kirish. Insoniyat tafakkuri tarixida milliylik va universallik, ruh va shakl, jimlik va harakat singari tushunchalar falsafaning markaziy mavzularidan biri bo'lib kelgan. Har bir xalq o'z madaniy yodgorliklari, san'ati, adabiyoti va falsafasi orqali milliy tafakkurining o'ziga xos qirralarini namoyon etadi. Shu ma'noda, o'zbek zamonaviy falsafasining yorqin vakillaridan biri - Tilab Mahmudov ijodi, milliy tafakkur va estetik ong uyg'unligini ifoda etuvchi noyob hodisa sifatida alohida o'rinni egallaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev milliy tafakkur va ma'naviyat masalalariga oid chiqishlarida shunday deydi: "Bugungi kunda xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy tafakkurini, ma'naviy merosini chuqur o'rganish va uni yoshlar ongiga singdirish - millatning kelajagini belgilovchi eng muhim vazifadir. Chunki o'z tarixini, madaniyatini bilgan, san'atining mohiyatiga yetgan xalqgina kelajakka dadil qadam tashlay oladi"[1]

Mazkur fikr Tilab Mahmudov ijodi bilan uzviy uyg'unlikda ko'rinadi. Chunki yozuvchi o'z asarlarida milliy tafakkur va san'at uyg'unligi orqali insonni ruhiy kamolot sari yetaklaydi. U uchun san'at - bu xalqning ruhiy xotirasi, jimlik esa tafakkurning ichki ovozidir. Shu bois Mahmudov merosida milliylik va universallik g'oyalari zamonaviy

O'zbekiston madaniy siyosatining falsafiy asoslari bilan hamohangdir.

Adabiyotlar tahlili. Tilab Mahmudov ijodiga oid falsafiy-estetik tahlillarni o'rganish jarayonida Sharq mutafakkirlarining (Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy) insonparvarlik, ruhiy uyg'unlik va ichki go'zallik haqidagi qarashlari bilan yozuvchi g'oyalari o'rtasidagi uzviylik yaqqol ko'rinadi. Mahmudovning "Oqar daryo oqaversin jimgina" asari hamda "Omonat dunyo"dagi badiiy-falsafiy yo'nalishlar o'zbek milliy tafakkurining ruhiy manbalariga tayangan holda shakllanadi.

Muallifning san'at va hayot haqidagi falsafasi miniatyura san'ati estetikasi bilan uyg'unlashadi - unda ranglar, shakllar va jimlikning o'zaro ritmiga falsafiy ma'no yuklanadi. Shuningdek, Mahmudovning "jimlik falsafasi" g'oyasi zamonaviy o'zbek falsafasida ruhiy barqarorlik va ichki uyg'unlik mezoniga aylanmoqda. Rejissyor Qahramon Sa'dullaevning "Omonat dunyo" asariga bergan bahosi, adib shaxsiyatining insonparvarlik mohiyatini ochib beruvchi muhim tahliliy manba sifatida e'tirof etiladi.

Muhokama. Tilab Mahmudov ijodining o'ziga xosligi shundaki, u milliy tafakkur, ruhiy uyg'unlik va go'zallik tushunchalarini bir butun falsafiy tizim sifatida yoritadi. Uning asarlarida jimlik - befarqlik emas, balki ruhiy uyg'unlik va

tafakkurning ichki ovozidir. “Oqar daryo oqaversin jimgina” asarida daryo timsoli hayot oqimini, inson qalbining tinch oqimini ifoda etadi. Shu orqali yozuvchi inson va borliq o’rtasidagi ruhiy aloqani tasvirlaydi.

Mahmudovning qarashlari milliylik va universallik, ruh va shakl, jimlik va harakat singari falsafiy ziddiyatlarni uyg’unlashtirgan holda, o’zbek estetik tafakkurining yangi bosqichini belgilaydi. U insondagi nuqsonlarni yovuzlik emas, balki mehr orqali yoritadi. Bu jihatdan u Forobiy va Navoiyning insonparvarlik g’oyalari zamonaviy ruhda davom ettiradi.

Adibning so’zga bo’lgan e’tibori, badiiy ifoda vositalarini “zargardek” sinchkovlik bilan tanlashi, milliy san’at estetikasi bilan uyg’unlashgan ruhiy tahlil uslubini yaratgan. Shuning uchun ham uning merosi o’zbek falsafasining estetik yo’nalishida o’chmas iz qoldirgan.

Natijalar. Tilab Mahmudov ijodi o’zbek milliy tafakkurining zamonaviy bosqichini falsafiy va estetik jihatdan talqin etuvchi noyob hodisa sifatida namoyon bo’ladi. “Oqar daryo oqaversin jimgina” asarida hayot, ruhiy osoyishtalik va jimlik motivlari o’zbekona sabr va tafakkur madaniyatining badiiy ifodasidir. Adibning “jimlik falsafasi” zamonaviy o’zbek falsafasida ruhiy uyg’unlik, sokinlik va barqarorlik tushunchalarini mustahkamlaydi. Uning miniatyura san’atiga oid qarashlari san’atni nafaqat tashqi go’zallik, balki ichki ruhiy uyg’unish manbai sifatida talqin etish imkonini beradi.

Tilab Mahmudovning falsafiy merosi milliy tafakkur va umuminsoniy qadriyatlar sintezini ifodalab, yoshlar estetik ongining shakllanishida muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Tilab Mahmudov o’z asarlarida inson qalbi, tabiat va san’at o’rtasidagi uzviy aloqani tahlil etadi. Uning falsafiy qarashlarida jimlik, sokinlik, oqim va ichki uyg’unlik motivlari o’zbek milliy tafakkurining asrlar davomida shakllanib kelgan ruhiy an’alariga tayangan holda talqin etiladi. Ayniqsa, yozuvchining “Oqar daryo oqaversin jimgina” asari hayotning abadiy oqimi, ruhiy osoyishtalik va tafakkur jimligi ramzi sifatida o’zbek milliy estetik dunyoqarashining yorqin ifodasidir.

Tilab Mahmudov ijodining falsafiy mohiyatini chuqur o’rganish bugungi kunda o’zbek falsafasining zamonaviy paradigmasini anglash, milliy tafakkur evolyutsiyasini ilmiy asosda tahlil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki yozuvchi o’z asarlarida milliy san’atning, ayniqsa miniatyura san’atining estetik mohiyatini falsafiy darajada sharhlab, uni inson ruhining uyg’unlik manbai sifatida talqin qiladi.

Miniatyura san’ati haqida so’z yuritir ekan, Mahmudov uni ranglar sukunati, chiziqlar tartibi va shakllar uyg’unligi orqali inson tafakkurining ichki go’zalligini aks ettiruvchi ruhiy holat sifatida ko’radi. U uchun san’at - bu nafaqat tashqi go’zallik, balki milliy o’zlikni idrok etish vositasi, ruhiy uyg’unish manbaidir. Shu bois, Tilab Mahmudov qarashlari o’zbek falsafasida “ichki go’zallik” tushunchasining yangicha talqinini beradi.

Uning falsafiy merosida sokinlik va oqim, jimlik va hayotiylik, tasvir va ruhiyat o’rtasidagi uyg’unlik san’at falsafasining markaziy konsepsiyasiga aylanadi. Bu qarashlar Forobiy, Ibn Sino, Navoiy kabi Sharq mutafakkirlarining “ruhiy go’zallik” haqidagi g’oyalari bilan uzviy bog’liqdir. Shu jihatdan, Tilab Mahmudov merosi milliy tafakkurning zamonaviy bosqichdagi estetik-falsafiy davomchisi sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda milliy falsafa, san’at va madaniyat uyg’unligining mohiyatini tahlil etishda Tilab Mahmudov qarashlari zamonaviy yoshlar tafakkurida ruhiy uyg’unlik, sabr va sokinlik tuyg’ularini shakllantirishda muhim nazariy asos bo’lib xizmat qilmoqda. Uning asarlaridagi jimlik falsafasi – bu befarqlik emas, balki ruhiy barqarorlik va ichki uyg’unlikning ifodasidir.

Shu boisdan, mazkur maqolada Tilab Mahmudovning falsafiy merosida milliy tafakkur elementlari, xususan “Oqar daryo oqaversin jimgina” asari hamda miniatyura san’ati haqidagi qarashlari falsafiy-estetik tahlil asosida yoritiladi.

Rejissyor Qahramon Sa’dullaevning “Omonat dunyo” asariga bergan bahosi Tilab Mahmudov shaxsiyati va ijodining chuqur insonparvarlik mohiyatini yoritadi. U muallifni hayotning achchiq-chuchuklarini chuqur his qilgan, biroq bu sinovlarning asoratini qalbiga yuqtirmagan ijodkor sifatida tasvirlaydi. Mahmudov insondagi nuqsonlarni yovuzlik emas, balki ularni mehr bilan qabul qilish, ezgulik darajasiga ko’tarish orqali badiiy obrazlarga aylantira olgan san’atkoridir.

Adibning so’zga bo’lgan munosabati, har bir badiiy ifodani zargardek sinchkovlik bilan tanlashi, hayot tafsilotlarini chuqur tahlil etib, ularni insoniylik mezonida qayta talqin qilishi uning ijodini falsafiy jihatdan o’ziga xos qiladi. “Oqar daryo oqaversin jimgina” va “Omonat dunyo” asarlari orqali u hayotning murakkab qatlamlarini ochib, inson qalbining nozik kechinmalarini mehr, ezgulik va go’zallik bilan uyg’unlashtiradi.

Tilab Mahmudov ijodida hayot falsafasi, inson mohiyatini anglash, va go’zallikni ezgulik mezonida talqin etish kabi jihatlar o’zbek milliy tafakkurining zamonaviy namunasini ifodalaydi. U yaratgan obrazlarda adovat o’rnini mehr, alam o’rnini tushunish, kibr o’rnini esa insoniy samimiyat egallaydi. Shu jihatdan, yozuvchi nafaqat adabiyot maydonida, balki milliy estetik tafakkur rivojida ham o’ziga xos iz qoldirgan buyuk siymodir.

“Oqar daryo oqaversin jimgina” asarining falsafiy-estetik talqini

Tilab Mahmudovning “Oqar daryo oqaversin jimgina” asari o’zbek adabiyotida inson qalbining ruhiy holatlarini nozik, falsafiy tahlil orqali ochib beruvchi asarlardan biridir. Asar nomining o’zi metaforik ma’no kasb etadi - “oqayotgan daryo” hayotning uzluksiz oqimini, “jimlik” esa ichki ruhiy kechinmalar, sukutdagi falsafani anglatadi. Muallif bu asar orqali inson va borliq, ruh va tan, sukut va so’z o’rtasidagi murakkab ichki bog’liqlikni badiiy-falsafiy ifoda etadi [1]. Mahmudovning obraz yaratish uslubi miniatyura san’atiga xos - u har bir detalndan hayotning butun manzarasini kashf etadi. Asarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari zarradek nozik, ammo teranlikda ummon misolidir. Bu jihat o’zbek milliy tafakkurining muhim xususiyatlaridan biri-tuyg’ularni yashirin, ammo ma’no jihatdan chuqur ifodalash san’atining namunasi sifatida namoyon bo’ladi [2]. “Oqar daryo oqaversin jimgina” asarida yozuvchi hayotning murakkabliklarini insoniy mehr, kechirimlilik va sabr orqali yoritadi. Adibning falsafasida insonni anglash - bu uni hukm qilish emas, balki uning ichki og’rig’ini his qilish, unga rahm, mehr bilan qarashdir. Shu jihatdan Tilab Mahmudov Forobiy, Ibn Sino va Navoiylarning insonparvarlik g’oyalari bilan mushtaraklik kasb etadi [3].

Bu asarda hayot oqimi daryo timsolida tasvirlanadi. Daryo - vaqt, hayot va inson ruhining uzviy ramzidir. U oqadi, ammo jim - ya’ni inson ham hayot oqimida jimlik bilan o’z falsafasini kechiradi. Shu falsafiy jimlikda Mahmudovning milliy tafakkur unsurlari, o’zbekona mulohaza, sabr va ruhiy poklik mujassam [4].

Tilab Mahmudovning badiiy tili sodda, ammo estetik jihatdan teran; u so’z orqali nafaqat obraz, balki falsafiy tafakkur oqimini ham shakllantiradi. Shu bois, uning asarlari o’zbek adabiy tafakkurining milliy va umuminsoniy qadriyatlar sinteziga asoslangan yuksak bosqichini ifodalaydi [5].

Xulosa. Tilab Mahmudov ijodi - bu inson qalbining eng nozik torlarini, hayotning zohiriy va botiniy qatlamlarini falsafiy teranlikda yoritgan badiiy maktabdir. Uning “Oqar daryo oqaversin jimgina” va “Omonat dunyo” asarlari o’zbek milliy tafakkurining estetik mohiyatini, insoniylikning ruhiy

manbalarini, hayot falsafasining badiiy timsollarini mujassamlashtiradi.

“Oqar daryo oqmasmidi jimgina” asarida yozuvchi hayotni jim oqayotgan daryoga qiyoslab, inson ruhining sukutdagi iztirobi, sabr va tafakkur orqali yetilishini tasvirlaydi. Muallifning har bir so’zi, har bir obrazida ramz yotadi: jimlik - bu ruhiy uyg’onish, daryo esa hayot oqimining abadiy timsolidir. Shu jihatdan Mahmudov hayotning tashqi manzarasidan emas, balki ichki ma’naviy qatlamidan falsafa yaratadi.

“Omonat dunyo” asarida esa yozuvchi hayotning achchiq-chuchuklarini, insonning dunyoga va o’z vijdoniga bo’lgan munosabatini sinov maydonida ko’rsatadi. Bu asarda hayot o’tkinchiligi, odamzodning murakkab kechinmalari, ezgulik bilan yovuzlikning muvozanati, sof yurakning sinovlardan so’ng ham musaffo qolishi chuqur falsafiy mazmunda talqin etiladi. Mahmudov qahramonlari orqali

insonni, uning o’zligini anglash, kechirim, sabr va muhabbatning abadiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

Har ikkala asar Tilab Mahmudovning falsafiy merosida milliy tafakkur elementlarining yorqin ifodasidir. Uning asarlarida o’zbekona hayot falsafasi - kamtarlik, shukronalik, poklik, mehr va vijdon mezonlari asosiy g’oyaviy o’q sifatida namoyon bo’ladi. Yozuvchi hayotni fojea emas, balki ma’naviy kamolot manbai sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan, Mahmudov ijodi insonni ezgulikka, hayotning ichki ohangini tinglashga, jimlikda ham ma’no topishga undaydi.

Tilab Mahmudovning “Oqar daryo oqmasmidi jimgina” va “Omonat dunyo” asarlari o’zbek adabiyotining falsafiy yo’nalishida yangi bosqich yaratgan, inson ruhining go’zalligini, hayotning “omomat” mohiyatini anglashda milliy tafakkur va umuminsoniy qadriyatlarning uyg’unligiga xizmat qiluvchi asarlardir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. “Yangi O’zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O’zbekiston, 2021. – B. 184.
2. Mahmudov T. Oqar daryo oqmasmidi jimgina. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1996.
1. Sa’dullaev Q. Tilab Mahmud ijodining falsafiy mohiyati haqida. – “Yoshlik” jurnali, 2002, №4.
3. Forobiy A. Fozil shahar ahli haqida risola. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983.
5. Махмудов Т. Эстетик дид хакида - Toshkent: Ўздавнашр. 1964.